

“GLOBAL EKOLOGIK BARQARORLIKKA ERISHISHDA YUMSHOQ KUCHNING STRATEGIK RO‘LI”

Baratova Shoxsanam Xasan qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati” yo‘nalishi

2-kurs magistranti.

E-mail: shoxsanamamonova@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi rivojlangan dunyoda ekologik masalalar tobora muhim mu‘ammolardan biri bo‘lib bormoqda. Iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning tugashi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi muammolar global miqyosdagi barcha davlatlarni xavf ostiga qo‘ymoqda. Ushbu mu‘ammolarga yechim berish uchun rivojlangan davlatlar,

ekologik diplomatiya va yumshoq kuch (soft power) strategik yondashuvlarni qo‘llamoqda. Maqolada ekologik diplomatiya va yumshoq kuchning o‘zaro bog‘liqligi, global barqarorlikni ta‘minlashda ularning o‘rni, hamda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va ekologik yechimlarni ilgari surishda bu ikki konseptning qanday muhim ro‘l o‘ynashi, shuningdek ekologik diplomatiya va yumshoq kuchning xalqaro siyosatda qanday o‘zaro bog‘langanini va bu yondashuvlarning global ekologik barqarorlikni saqlashda muhim vosita sifatida ishlatilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlari: yumshoq kuch, ekologik diplomatiya, Ekologik xavfsizlik, Barqaror rivojlanish, Yumshoq kuch va diplomatik strategiya.

Metodlar: tahlil qilish, solishtirish, Kvantitativ tahlil.

Kirish

Bugungi global dunyoda atrof-muhitni himoya qilish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash har bir davlatning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, suv tanqisligi va boshqa ekologik tahdidlar butun dunyo uchun jiddiy xavf solmoqda. Ushbu muammolar nafaqat tabiatga, balki insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlariga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bu mu‘ammolarga qarshi kurashishda diplomatiya va yumshoq kuchning o‘rni kattadir. Ekologik diplomatiya va yumshoq kuch o‘rtasidagi aloqalar davlatlar o‘rtasidagi ijobiy aloqalarini mustahkamlash, global barqarorlikni ta‘minlash va ekologik yechimlarni ilgari surishda muhim vositadir. Ekologik diplomatiya – bu davlatlar o‘rtasidagi ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan diplomatik faoliyat bo‘lsa, yumshoq kuch (soft power) – esa bu davlatning madaniy, axloqiy va siyosiy ta‘sirini boshqa davlatlar va xalqaro jamoatchilikka qarshi majburiy choralar bilan emas, balki ijobiy vositalar orqali qo‘llashidir.

Natija va muhokamalar:

Zamonaviy davrda ekologik diplomatiya va yumshoq kuchning o‘zaro bog‘liqligi va samaradorligi jahon miqyosida ekologik masalalarni hal qilishda muhim ro‘l o‘ynamoqda. Davlatlar o‘zining ekologik siyosatlarini, texnologik yutuqlarini, barqaror rivojlanishdagi yutuqlarini global miqyosda targ‘ib qilish uchun yumshoq kuch strategiyasidan keng foydalanmoqda. Misol uchun, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va bu texnologiyalarni boshqa mamlakatlar bilan bo‘lishishni, o‘rganish, tajriba almashish – yumshoq kuchning amaliy misolidir. Masalan, **Yaponiyaning** iqlimni muhofaza qilish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalari, yoki quyosh energiyasi va samarali energiya tejash texnologiyalari, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish uchun eksport qilinadi. Ammo bunday jarayonlarni amalga oshirishda ba‘zi mu‘ammo va qiyinchiliklar ham mavjudir. Birinchidan, global miqyosda mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy farqlar ekologik diplomatiyaning samaradorligini cheklashi mumkin. Ba‘zi davlatlar o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda ekologik masalalarni etibotsiz qoldirishadi. Misol uchun, **AQSh** va **Xitoy** o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat, iqlim o‘zgarishi masalalarida o‘zaro kelishuvlarga erishishda ba‘zi to‘siqlarni yaratadi. **Xitoyning** sanoat rivojlanishi va ko‘mirga tayanishi, **AQShning** ayrim ekologik me‘yorlarni kamaytirishga moyil bo‘lishi, bunday muammolarning global ekologik diplomatiya samaradorligiga to‘sqinlik qiladi. Ikkinchidan, yumshoq kuchning ekologik diplomatiyada ta‘sir ko‘rsatish darajasi har xil bo‘lishi mumkin, chunki har bir davlatning madaniy, ilmiy va texnologik salohiyati farqlanadi. Masalan, **Skandinaviya mamlakatlari** (Shvetsiya, Daniya, Norvegiya) o‘zlarining yuqori ekologik salohiyatlari va barqaror rivojlanish siyosatlari bilan dunyo bo‘ylab ekologik diplomatiya sohasida muvaffaqiyat qozonmoqda. Bu davlatlar o‘zining ekologik texnologiyalarini va siyosatlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga taqdim etishadi. Biroq, ba‘zi mamlakatlarda, masalan, **Janubiy Osiyo** va **Afrikadagi ba‘zi davlatlarda** ekologik diplomatiya va texnologiyalarni qo‘llashda muammolar mavjud, chunki bu mamlakatlarda texnologik salohiyat past va iqtisodiy resurslar cheklangan. Lekin ekologik diplomatiya va yumshoq kuchning birgalikdagi ishlatilishi davlatlarga ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishdagi maqsadlariga erishishni ta‘minlashga yordam beradi. Masalan, **Fransiya** va **Nemisiyada** o‘zaro amalga oshirilgan ekologik diplomatiya orqali tajriba almashish va texnologik hamkorlik orqali iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish maqsadida amalga oshirilgan tajribalar global hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, ekologik diplomatiya va yumshoq kuch, global miqyosda ijtimoiy adolatni, inson huquqlarini himoya qilishni va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga ham katta hissa qo‘shadi. Ekologik muammolar faqat ekologiya va iqtisodiyotga ta‘sir qilmay, balki insoniyatning kelajagi, ijtimoiy barqarorligi va

xavfsizligini ham belgilaydi. Masalan, iqlimning o'zgarishi global issiqlik va qurg'oqchilik kabi hodisalarni kuchaytirib, insonlarning yashash sharoitlarini og'irlashtirmoqda. Bunday jarayonlar esa qishloq xo'jaligiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydidir: o'zgargan iqlim tufayli ba'zi hududlarda qurg'oqchilik, boshqalarida esa ortiqcha yomg'irlar yoki toshqinlar kuzatilmoqda. Natijada, oziq-ovqat ishlab chiqarish kamaydi va bu holat esa ijtimoiy tengsizlikka olib keldi. Misol uchun, Afrika va Markaziy Osiyodagi ba'zi hududlarda qurg'oqchilik sababli oziq-ovqat tanqisligi va qashshoqlik mu'ammolari chiqmoqda. Bu holat esa migratsiya jarayonlarini kuchayishiga va davlatlar o'rtasida geosiyosiy taranglikni oshishiga sabab bo'lmoqdadir. Shuningdek bunday holatlar odamlar orasida ham ko'plab mu'ammolarga sabab bo'lmoqdadir. Faqat iqlimning o'zgarishi emas atrof-muhitning ifloslanishi ham odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda misol uchun ularning mehnat qobiliyatini pasayishiga, sog'lig'iga va ijtimoiy holatlarini xavf ostiga qo'ymoqda. Masalan 2008-yilgi Pekin Olimpiadasi misolida, havoning ifloslanishi sababli sportchilar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatganini ko'rish mumkin. Shuningdek, tabiiy resurslarning kamayishi ham ijtimoiy barqarorlikga ta'sir qiladi. Masalan suv resurslarining cheklanishi, hozirda ayrim mintaqalarda suv uchun kurash kuchaygan va bu hududlardagi ijtimoiy taranglikni oshirgan. Misol sifatida, Markaziy Osiyo va Afrikada suv yetishmovchiligi va iqlim o'zgarishlari sababli aholi ko'chishi va geosiyosiy qarama-qarshiliklarni ko'rish mumkindir. Bunday misollar ekologik muammolar insoniyatning kelajagi uchun jiddiy xavf ekanini ko'rsatadi. Agar ekologik barqarorlikni ta'minlashga erishilsa, bu nafaqat tabiatni himoya qilish, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni davom ettirish va xavfsiz yashash sharoitlarini yaratishga ham imkon yaratadi. Yumshoq kuch esa bu jarayonni boshqarishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, chunki u davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi va ekologik muammolarga yechim topishda diplomatik yondashuvni o'z ichiga oladi. Ekologik diplomatiya va yumshoq kuchni samarali qo'llash, butun insoniyatning kelajagi uchun jiddiy xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishish imkonini yaratadi. Shu bois, barcha davlatlar ekologik barqarorlikni o'z siyosatlarining asosiy yo'nalishi sifatida qabul qilishlari zarur, chunki bu jarayon kelajakda insoniyatning umumiy farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ekologik diplomatiya va yumshoq kuchning integratsiyasi dunyoning turli burchaklarida yashovchi odamlarning hayotini yaxshilash, kelajak avlodlar uchun xavfsiz va barqaror muhit yaratishga qaratilgan mustahkam poydevor bo'ladi. Shuningdek Ekologik diplomatiya va yumshoq kuchning jahon miqyosida ekologik muammolarga yechim topishida ahamiyati yuksak bo'lib davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va tajriba almashish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur vositalar hisoblanadi. Bu jarayon, nafaqat

ekologik muammolarni hal qilish, balki global barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda ham muhim ro'l hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Nye, J. S. (2004). *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. Public Affairs.
- 2 Keohane, R. O., & Nye, J. S. (2012). *Power and Interdependence*. Longman.
- 3 Finkel, E. (2015). *Ecological Diplomacy: The Role of Soft Power in Environmental Cooperation*. Journal of International Relations, 20(2), 35-45.
- 4 Busse, M., & Thomas, A. (2018). *Environmental Diplomacy: International Cooperation for Sustainable Development*. Routledge.
- 5 Houghton, J. (2019). *The Global Impact of Climate Change Diplomacy*. Oxford University Press.
- 6 **Yuldashev, A. (2017).** *Xalqaro ekologik diplomatiya: nazariy va amaliy masalalar*. Tashkent: O'zMU.
- 7 **Rasulov, D. (2020).** *Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik: O'zbekistondagi yondashuvlar*. Tashkent: Innovatsion rivojlanish markazi.
- 8 *Water Scarcity and Geopolitical Tensions in Central Asia and Africa* (Markaziy Osiyo va Afrikada suv resurslari va geosiyosiy qarama-qarshiliklar, 2017).